



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(6)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,  
22-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
<b>Madaminova Gulzira Gulamkadirovna</b>	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni .....	14
<b>Arolov Davronjon Davlataliyevich</b>	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish .....	19
<b>Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi</b>	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
<b>Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	26
<b>Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi</b>	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
<b>Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna</b>	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
<b>Hojiyeva Nasiba Bahodirovna</b>	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
<b>Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi</b>	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati .....	43
<b>Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
<b>Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi</b>	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari .....	54
<b>Nusratova Mexriniso Baxshilloevna</b>	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
<b>Pulatova Dilfuza Azamkulovna</b>	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
<b>Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li</b>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi .....	70
<b>Qurbonova Sevara Suyunovna</b>	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari .....	74
<b>Raxmatov Oxunjon Soibjonovich</b>	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
<b>Saidova Feruza Akramovna</b>	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
<b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
<b>Toxirova Dilshoda Inom qizi</b>	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash .....	92
<b>Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi</b>	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
<b>Xaydarova Go‘zalxon</b>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari .....	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari .....	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi .....	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar .....	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish .....	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri .....	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi .....	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах .....	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
<a href="#">Allamurodov Elyor Tursun ugli</a>	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
<a href="#">Dilrabo Jumanova</a>	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar .....	227
<a href="#">Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</a>	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar .....	232
<a href="#">Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</a>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
<a href="#">Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</a>	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
<a href="#">Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi</a>	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
<a href="#">Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich</a>	

# DEVIANT XULQ- ATVORLI O'SMIRLAR IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Elov Ziyodullo Sattorovich

Osiyo xalqaro universiteti professori psixologiya fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda o'smirlilik davrida deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik, oilaviy, ijtimoiy va shaxslararo omillarning o'rni yoritilgan. Xususan, o'smirlarning emotsional holati, o'z-o'zini baholash darajasi, motivatsion sohasi, irodaviy sifatleri, kommunikativ ko'nikmalari hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarining ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri tahlil etilgan. Shuningdek, oiladagi nosog'lom psixologik muhit, nazoratning sustligi, tengdoshlar guruhi ta'siri, maktabdagi moslashuv muammolari va ommaviy axborot vositalarining ta'siri deviant xulq-atvor rivojlanishining muhim determinantlari sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari deviant xulq-atvorli o'smirlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlash, ularni jamiyatga moslashtirish hamda profilaktik va korreksion dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** deviant xulq-atvor, o'smirlilik davri, ijtimoiylashuv, psixologik determinantlar, emotsional holat, irodaviy sifatlar, oila, tengdoshlar guruhi, ijtimoiy moslashuv, profilaktika.

**Abstract:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the psychological determinants of socialization among adolescents with deviant behavior. The study examines the role of individual psychological, familial, social, and interpersonal factors influencing the development of deviant behavior during adolescence. Particular attention is paid to the impact of adolescents' emotional state, self-esteem, motivational sphere, volitional qualities, communication skills, and interactions with the social environment on the socialization process. In addition, an unfavorable psychological climate within the family, insufficient parental control, peer group influence, school adjustment difficulties, and the impact of mass media are considered significant determinants of deviant behavior development. The findings of the study have important scientific and practical significance for ensuring the successful socialization of adolescents with deviant behavior, facilitating their adaptation to society, and developing effective preventive and corrective programs.

**Key words:** deviant behavior, adolescence, socialization, psychological determinants, emotional state, volitional qualities, family, peer group, social adaptation, prevention.

**Аннотация:** В данной статье проведён научно-теоретический анализ психологических детерминант социализации подростков с девиантным поведением. Рассмотрена роль индивидуально-психологических, семейных, социальных и межличностных факторов, влияющих на формирование девиантного поведения в подростковом возрасте. Особое внимание уделено влиянию эмоционального состояния подростков, уровня самооценки, мотивационной сферы, волевых качеств, коммуникативных навыков и особенностей взаимодействия с социальной средой на процесс социализации. Кроме того, в качестве значимых детерминант развития девиантного поведения рассматриваются неблагоприятный психологический климат в семье, недостаточный родительский контроль, влияние группы сверстников, трудности школьной адаптации и воздействие средств массовой информации. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для обеспечения успешной социализации подростков с девиантным поведением, их социальной адаптации, а также разработки профилактических и коррекционных программ.

**Ключевые слова:** девиантное поведение, подростковый возраст, социализация, психологические детерминанты, эмоциональное состояние, волевые качества, семья, группа сверстников, социальная адаптация, профилактика.

## KIRISH

Jahonda jinoyatchilikni oldini olish va insonlar xavfsiz yashashlarini ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Jahon miqyosida deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik sabablarni aniqlash va uni baholash o'ta muhim ilmiy ahamiyat kasb etib, psixologik bilimlar tizimini moderni-



zatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, suitsidal xulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan yangi psixologik xizmat dasturlarini joriy etish, jamiyat hayotida yoshlar faolligini oshirish va ularning kasbiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

2019-yilda Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (APA)ning navbatdagi ilmiy-amaliy konferensiyasida deviant xulq va yoshlar mavzusida diqqatga sazovor ma'ruza taqdim etilgan. Ma'ruzachi M.J. Sigalning fikricha, iqtisodiy rivojlanishi sust bo'lgan va ijtimoiy islohotlar keng qamrovli kuchga ega bo'lmagan jamiyatlarda yoshlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar ko'p sodir bo'ladi. Chunki bunday jamiyatlarda qonuniylik va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik o'rtasidagi chegaralar juda kichikdir.

O'zbekiston 2024-yilning birinchi yarmida xavfsizlik darajasi bo'yicha Osiyo mamlakatlari orasida 15-o'rinni egallab, xavfsizlik darajasi bo'yicha 69,5 ball bilan, butun dunyoda jinoyatchilik darajasi bo'yicha esa 30,5 ball bilan 146 ta davlat ichida 118-o'rinni egallab turibdi. Qolaversa, O'zbekiston 121 ta mamlakatni o'z ichiga olgan Safety Perceptions Index 2023 (Xavfsizlikni idrok qilish indeksi) reytingida birinchi o'rinda qayd etilib, fuqarolar hayoti va harakatiga xavf darajasi minimal ekanligi bilan baholanadi. Afsuski, dunyoning o'nlab mamlakatlarida jinoyatchilik darajasining ortib borayotganligi, qolaversa, insonlarning yashashlari uchun xavfli hisoblangan hududlarning hali ham mavjudligi bu borada xalqaro miqyosda islohotlarni yanada jadallashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Qolaversa, dunyoda izchillik bilan amalga oshirilayotgan ko'pgina islohotlar zahirida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoiy xatti-harakatlarni bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, deviant xulq-atvorli o'smirlarni reabilitatsiya qilish, ijtimoiy-psixologik moslashish jarayonini yanada takomillashtirish borasida keng doirada ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan yakka tartibdagi profilaktika ishlari bilan bir qatorda ijtimoiy, psixologik, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari hamda qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida sog'lom ijtimoiy muhit va munosabatlarni shakllantirish orqali voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari hamda ular bilan bog'liq turli ijtimoiy salbiy illatlarning oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlari ta'sirini yo'qotish, zararsizlantirish va bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlash masalasi dolzarb muammo sifatida belgilab kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-sonli "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-sonli "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish amaliyotida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur yo'nalishga yaqin tadqiqot ishlarini yurtimiz psixolog olimlaridan Y.M. Asadov, O.U. Avlayev, D.Sh. Baratova, Sh.A. Isroilov, N.G. Komilova, Z.S. Elov, E.M. Muxtorov, G'.A. Normurodov, L.Y. Olimov, B.M. Umarov, U.D. Qodirov, O.S. Qodirov, G.Q. To'laganova, D. Sharipova, G. Xudoyarova, G.T. Yadgorovalar o'z ilmiy izlanishlarida deviant xulqli o'smirlar xulq-atvoriga xos salbiy illatlarning oldini olish, unga qarshi kurashish, ularni qayta tarbiyalashning psixologik, pedagogik hamda huquqiy masalalarini o'rgangan bo'lsalar, faylasuf olimlardan E. Yusupov, X. Shayxova, Q. Nazarov, N. Komilov, M. Xolmatova, M. Imomnazarovlar shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarini, sotsiolog M. Bekmurodov shaxs axloqini shakllantirishda hamda axloqiy buzilishlarning oldini olishda jamoatchilik fikrining tutgan o'rni masalalarini, huquqshunoslar O. Oqilov, A. Qulahmetov, M. Usmonaliyev, R. Turdiyevlar jinoyatchilik, jumladan, o'smirlar jinoyatchiligi masalalarini tadqiq qilganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.I. Volkov, A.G. Gresov, M.I. Enikeev, V.F. Pirojkov, Y.D. Zmanovskaya, S.A. Belicheva, Y.N. Ivanov, N.Y. Sinyagina, Y.I. Yurichka, R.V. Ovcharova, L.M. Semenyuk, I.V. Vachkov, R. Kochyuna, A.V. Boeva, D.I. Shustov, N.V. Vereshagina, A.R. Korshunovalar deviant xulqli o'smirlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish va ularning harakatlarini korreksiya qilish bilan bog'liq masalalarni tadqiq etganlar.

A.I. Donsov, Y.L. Arzumanov, A.D. Glotochkin, M.V. Lvova, A.E. Lichko, Y.A. Kleyberg, A.A. Rean, R.V. Fomina, A.V. Shuvalov va boshqalar tomonidan o'smir yoshdagi o'quvchilarda xulqi og'ishganlik va addiktiv xulq shakllari borasidagi tadqiqotlar keng qamrovli o'rganilgan bo'lib, lekin aynan deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidal holatlarni keltirib chiqaradigan motivatsiyalar ilmiy muammo sifatida o'rganilmagan.

Xorij tadqiqotchilaridan Dj. Kelli, Ch. Lomborzo, E. Krechmer, U. Sheldonlarning antropotsentrik nazariyasi, Z. Freyd, K. Yung, E. Erikson kabi olimlarning psixoanalitik nazariyasi, E. Dyurkgeym, R. Mertonlarning anomiya nazariyasi, S. Miller, E. Saterlandlarning madaniy-mantiqiy rivojlanish nazariyasi, A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi, G. Bekkerning stigmatizatsiya nazariyasi, A. Turning nizolar tipologiyasi nazariyasi, N. Smelzerning xulq-atvor qoidalari haqidagi nazariyasi, S. Ling hamda U. Xarre va boshqalarning deviatziya masalasiga oid tadqiqotlari mavjud bo'lsa-da, aynan deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidga moyillik motivatsiyasini aniqlash va korreksiyalashning psixologik mexanizmlari ustuvor tadqiqot yo'nalishi sifatida qaralmagan.

Demak, bu kabi muammolarni o'rganish, profilaktika ishlarini olib borish, bu borada zaruriy adabiyotlar yaratish, inqirozli vaziyatlar oqibatida kelib chiqadigan bir qator salbiy holatlarning oldini olishga, har qanday og'ir vaziyatlarda o'zini-o'zi boshqara oladigan, sog'lom fikrlashga qodir bo'lgan shaxsni voyaga yetkazishga mustahkam poydevor yaratadi.

K. Rodjers va R. Daymondning "Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi" usuli va uning tadqiqot maqsadiga mosligi deviant xulq-atvorli o'smirlardagi moslashuvchanlik yo'nalishlari izchilligini anglatadigan ijtimoiy muhit va shaxsiy tendensiyalarni ifodalovchi hamda o'zini-o'zi va ijtimoiy muhitni real baholashga imkoniyat yaratuvchi shaxsiy xususiyatlar, shaxsiy faoliyat, moslashuvchanlik va ijtimoiy qobiliyatlarni aniqlashda foydalanildi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida biz metodika mohiyati va unda belgilangan me'yorlarga tayanib, ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikning quyidagi 6 ta ajralmas ko'rsatkichlar bilan ifodalanishini aniqladik:

1. "Moslashuvchanlik";
2. "O'zini qabul qilish";
3. "Boshqalarni qabul qilish";
4. "Ijobiy hissiyotlar";
5. "Ichki his-tuyg'ular" ("Ichkarilik");
6. "Hukmronlikka intilish".

Ayni paytda, A.V. Karpovning "Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish" metodikasi, D. Lyusinning "Emotsional intellekt" so'rovnomasi, Shaferning "Ota-onalar xulq-atvori o'smirlar nazarida" test-so'rovnomasi hamda hammualliflikda ishlab chiqilgan "O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar so'rovnomasi" ijtimoiy-psixologik so'rovnomasidan foydalanildi va uning tadqiqot maqsadiga mosligi alohida mezonlar asosida tahlil qilindi.

**1-jadval: Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi usuli bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (K.Rodjers va R.Daymondning "Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi" usuli asosida)**

№	Omillar	Obyektlar (n=330)	O'rtacha qiymat	Statistik farq	
			M	t	p
1	<b>Moslashuv</b>	Qizlar (n=170)	46,71	-2,4	0,05
		Yigitlar (n=160)	54,14		
2	<b>O'zini-o'zi qabul qilish</b>	Qizlar	12,21	-2,1	0,05
		Yigitlar	16,54		
3	<b>Boshqalarni qabul qilish</b>	Qizlar	16,96	-2,3	0,05
		Yigitlar	13,32		
4	<b>Hissiy qulaylik</b>	Qizlar	16,20	-2,5	0,05
		Yigitlar	12,36		
5	<b>Ichki nazorat</b>	Qizlar	28,42	-3,2	0,05
		Yigitlar	19,52		



6	Hukmronlik istagi	Qizlar	8,36	-1,8	0,01
		Yigitlar	6,01		
7	Eskapizm (muammolardan qochish)	Qizlar	17,49	-2,3	0,05
		Yigitlar	11,23		

K. Rodjers va R. Daymondning "Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi" metodikasi orqali olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, "moslashuv" ( $t=-2,4$ ;  $p\leq 0,05$ ), "o'zini-o'zi qabul qilish" ( $t=-2,1$ ;  $p\leq 0,05$ ), "boshqalarni qabul qilish" ( $t=-2,3$ ;  $p\leq 0,05$ ), "hissiy qulaylik" ( $t=-2,5$ ;  $p\leq 0,05$ ), "ichki nazorat" ( $t=-3,2$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda "eskapizm (muammolardan qochish)" ( $t=-2,3$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi. "Hukmronlik istagi" ( $t=-1,1$ ;  $p\leq 0,01$ ) omilida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi.

Retrospektiv refleksiya mezonida ham qizlarda (59,12 %,  $m=1,96$ ), yigitlarda (49,98 %,  $m=1,76$ ) quyi qiymat katta foizda chiqqanligi har ikkala jinsdagi deviant xulq-atvorli o'smirlarda o'zini-o'zi tahlil qilish, harakatlarni tahlil qila olish, o'tmishi va ayni paytdagi o'zi bilan bog'liq bo'lgan voqea va hodisalarni baholashga moyillikning pastligi, ularning o'tmishda sodir bo'lgan hodisalarni tahlil qilish va bu jarayonning ishtirokchisi ekanligini inobatga olib, sodir bo'lgan voqealar tafsilotini hamda qilgan xatolarini tushunishi kabi jihatlar past darajada rivojlanganligini ko'rsatdi ( $t=-1,3$ ;  $p<0,01$ ).

Endi bevosita tanlangan asosiy metodikalarning omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga o'tamiz.

Eskapizm (muammolardan qochish) omili, shuningdek, emotsiyalarni tushunish (0,52\*) omili bilan bog'liqlikning mavjudligi yana o'sha salbiy natijalarga olib keladigan holat sifatida baholashga olib keldi. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda aynan o'z toifasidagi shaxslar bilangina yaqin munosabat o'rnatganliklari bois sheriklarining his-tuyg'ularinigina tushunishga moyilligi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Oilada shaxslararo munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligini asosiy sabab deb qaraydigan bo'lsak, bundan kerakli xulosa chiqarish lozimligini ko'rsatib turibdi.

**2-jadval: Ijtimoiy-psixologik moslashuv omillari bilan emotsional intellekt omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=330)**

OMILLAR	Moslashuv	O'zini-o'zi qabul qilish	Boshqalarni qabul qilish	Hissiy qulaylik	Ichki nazorat	Hukmronlik istagi	Eskapizm (muammolardan qochish)
Shaxslararo emotsional intellekt	0,18	-0,23*	0,09	0,280	0,16	0,25	0,51*
Ichki emotsional intellekt	-0,12	-0,08	-0,59*	0,09	0,18	-0,23	0,24
Emotsiyalarni tushunish	0,09	0,28	-0,13	0,09	-0,07	0,02	0,52*
Emotsiyalarni boshqarish	0,08	0,07	0,14	0,17	-0,14	0,09	0,22
Boshqalarning emotsiyasini tushunish	-0,25*	-0,102	0,09	0,17	0,07	-0,05	0,18
Boshqalarning emotsiyasini boshqarish	0,02	-0,03	-0,16	0,14	-0,08	0,22	0,27
O'zini emotsiyasini tushunish	-0,24	-0,51*	0,02	0,11	0,25	-0,02	0,08
O'zini emotsiyasini boshqarish	0,07	-0,17	0,17	0,19	0,04	0,21	-0,08
Tashqi ta'sirlardan o'z emotsiyasi nazorati	0,58*	0,61**	0,08	0,07	0,14	-0,06	-0,26

Haqiqatan ham, hattoki o'smir qizlarda ham (voyaga yetmaganligiga qaramasdan) tungi klublarda kechgacha qolib, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishi, o'zga jins vakillari bilan jinsiy munosabatda bo'lishi kabi jiddiy salbiy harakatlarga tobekikka (addiksiyaga) olib kelishi, kerak bo'lsa, odatlanib qolishigacha bo'lgan bosqichga yetib borishadi. Masalaning bunday jiddiy tus olishiga eng asosiy sabab sifatida oilaviy munosabatlardagi nizoli holatlar, ajrimlar, ota-onasining uzoq muddat birga yashamayotganligi (xususan, xorijga chiqib ketganliklari) kabilarni kiritishimiz mumkin. Albatta, ota-onalar farzand tarbiyasida aynan ushbu aloqadorlikni inobatga olishlari zarur.

Eskapizm (muammolardan qochish) omili, shuningdek, emotsiyalarni tushunish ( $t=0,52$ ;  $p\leq 0,05$ ) omili bilan bog'liqlikning mavjudligi yana o'sha salbiy natijalarga olib keladigan holat sifatida baholashga olib keldi. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda aynan o'z toifasidagilar bilangina yaqin munosabat o'rnatganliklari bois sheriklarining his-tuyg'ularinigina tushunishga moyilligi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Oilada shaxslararo munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligini asosiy sabab deb qaraydigan bo'lsak, bundan kerakli xulosa chiqarishimiz lozimligini ko'rsatib turibdi.

Hissiy qulaylik omili bilan shaxslararo emotsional intellekt omili o'rtasida yuqori ijobiy bog'liqlikning kuza-tilganligi (0,508) aslida ulardagi yashirin holda kechadigan psixik kechinma sifatida baholanadi. Deviant xulq-atvorli o'smirlarning ko'pchiligida oila a'zolari hamda yaqinlari tomonidan iliq munosabat o'rnatilmaganligi fonida ushbu xulq namoyon bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, ularda aynan yaqin insoniy munosabatlarga kirishish istagi ustunlik qilishini anglatadi. Ularning nazarida oddiy o'smirlardagi kabi iliq munosabat va qo'llab-quvvatlash, qiyin vaziyatlarga tushganda (salbiy harakatlar natijasida) jazolanishdan ko'ra do'stona muloqot o'rnatilishi hissiy qulaylikni keltirib chiqarishi mumkinligi bilan izohlasak bo'ladi. Afsuski, bunday o'smirlar bilan ular istaganidek munosabatning o'rnatilmaganligi sababli boshqa deviant xulqlilar bilan yaqinlashishiga va, tabiiyki, ular bilan hissiy qulay sharoitning vujudga kelishiga yo'nalishiga, ijtimoiy normalardan chetga chiqishlari uchun sharoit va imkoniyat yaratiladi. Bunday holat esa bola shaxsining ijtimoiylashuvi uchun mas'ul bo'lganlar (otona, pedagog, psixolog, inspektor-psixolog va boshqalar) aynan ular bilan ko'proq muloqot qilishlarini, ularga ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni yaratib berishlari zarurligini ko'rsatadi.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda moslashuv omili bilan boshqalarning emotsiyasini tushunish omili o'rtasidagi salbiy korrelyatsiyaning (-0,25) mavjudligi eng katta muammolardan biri ekanligini qayd etish lozim. Haqiqatan ham, ularning yaqinlarining o'zlariga nisbatan qilayotgan munosabatlari mazmunini to'g'ri baholay olmasliklari, qilgan xatti-harakatlariga nisbatan qattiq tanbeh berishlari yoki dakki berishlarini o'ziga nisbatan noo'rin qo'llanildi deb baholashi oqibatida shaxslararo munosabatlarda turli nizoli holatlarga olib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Natijada ularda uydan chiqib ketish, juda kech uyga qaytish yoki umuman qaytmaslik holatlari yuzaga keladi (daydikning yengil formasidan o'ta og'ir formasigacha). Afsuski, yuqorida bir necha bor ta'kidlanganidek, bunday vaziyatlarda yengil-yelpi hayot kechirishga moyillikning kuchayishi oqibatida aynan boshqa deviant xulq egalari (jinoyatchilar ham)ning domiga tushib qolishiga olib keladi.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda ijtimoiy-psixologik moslashuv omillari bilan yuqorida tahlil qilingan omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar shuni ko'rsatadiki, ular bilan olib boriladigan ta'lim va tarbiya jarayonida ota-onalar, pedagoglar va boshqa mas'ullar aynan shu jihatlariga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Bu esa, o'z navbatida, deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Olib borgan nazariy va amaliy izlanishlarimiz davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga tayangan holda o'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi quyidagilarni asosiy omillar sifatida qayd etishimiz mumkin: ijtimoiy omillar, oilaviy omillar, shaxsiy omillar va fiziologik omillar.

Oilaviy terapiya nuqtayi nazaridan oilaviy jarayonning har bir ishtirokchisi ma'lum rol ijro etadi, tizim esa, umuman olganda, mustahkam muvozanatni saqlashga intiladi. Og'ma xulq-atvor oila muammolarining belgisi. Umuman olganda, belgi oilani buzilishdan va odatiy muvozanatni saqlab qolishga xizmat qiladi. Masalan, o'smirning giyohvandlikka qaramligi ota-onani ajralishdan saqlab qoladi, chunki ota-onalar bu vaziyatda real xavf bilan kurashish uchun birlashadilar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarimiz va qo'lga kiritilgan natijalarga asoslanib, og'ma xulq-atvorni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan (individual-tipologik ko'tara olmaslik, shaxsning o'zini boshqarishidagi buzilishlar, shaxs resurslari tanqisligi, ya'ni uning muhim hayotiy xususiyatlari va o'rnini bosuvchi imkoniyatlari) zarur resurslarni inobatga olish lozim.

Tadqiqotimiz davomida biz "Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvini takomillashtirish" modelini ishlab chiqdik. Mazkur modelni yaratishdan asosiy maqsad o'smirlardagi deviant xulq-atvorni korreksiyalash orqali ijtimoiy-psixologik moslashishni takomillashtirishdan iborat. Mazkur model deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvidagi asosiy yo'nalishlar va tamoyillarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, profilaktika ishlarini amalga oshirishdagi o'zaro hamkorlik haqida ham tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Ishtirokchilarning trening dasturidan keyingi deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiy-psixologik moslashuvi ko'rsatkichlarining qiyosiy holati tahlil qilindi. Psixotrening dasturi qo'llanilgunga qadar va undan keyingi natijalarga ko'ra ko'rsatkichlar yuzasidan o'rtacha miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha psixometrik talablar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlovchi moslashuvchanlik omillari bilan emotsional intellekt va refleksiya darajalari o'rtasidagi sinergetik va integratsion bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan psixotrening mashg'uloti tadqiqot ishimizga jalb qilingan barcha o'smirlar o'rtasida tashkil etildi. Psixotrening dasturidan keyingi natijalar deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiy-psixologik moslashuvini ifodalovchi komponentlarda rivojlanishga erishilganligini ko'rsatdi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiylashuvi murakkab va ko'p omilli psixologik jarayon bo'lib, uning shakllanishi individual, oilaviy va ijtimoiy determinantlarning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, emotsional beqarorlik, past o'z-o'zini baholash, kommunikativ qiyinchiliklar, irodaviy nazoratning sustligi hamda motivatsion sohadagi muammolar o'smirlarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy psixologik omillar hisoblanadi.

Shuningdek, oiladagi nosog'lom psixologik muhit, ota-ona nazoratining yetarli emasligi, tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri va ta'lim muassasasidagi moslashuv muammolari deviant xulq-atvorning kuchayishiga hamda ijtimoiylashuv jarayonining izdan chiqishiga sabab bo'lishi aniqlandi. Aksincha, ijobiy oilaviy munosabatlar, sog'lom psixologik muhit, samarali pedagogik yondashuv va konstruktiv ijtimoiy qo'llab-quvvatlash o'smirlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.

Shu bois deviant xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashda profilaktik, diagnostik va korreksion tadbirlarni kompleks tarzda amalga oshirish, ularda ijtimoiy kompetentlik, o'zini boshqarish ko'nikmalari hamda ijobiy hayotiy qadriyatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan tizimli psixologik-pedagogik ishlar o'smirlarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlash hamda deviant xulq-atvor ko'rinishlarining oldini olishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. American Psychological Association. Publication Manual of the American Psychological Association. - 6th ed. - Washington, DC : American Psychological Association, 2019.
2. Elov Z. O'smirlilik davrida suitsidal xavfni aniqlash va psixologik korreksiya mexanizmlarini tadqiq etish // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. - 2026. - B. 531-533.
3. Элов З.С. Девиант хулқ-атворли ўсмирларда суицидал ахлоқ психологияси // Та'лим va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali. – Бухоро, 2023. - Б. 313-318.
4. Элов З.С. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар томонидан содир этилаётган ноқонуний хатти-ҳаракатларнинг психологик сабаблари // Та'лим va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali. - Бухоро, 2023. - Б. 292-296.
5. Элов З.С. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар орасида суицидал ахлоқ тушунчаси ва илмий таҳлиллар // Journal of Pedagogical and Psychological Studies. - 2023. - Т. 1, № 1. - Б. 150-157.
6. Elov Z.S. Causes and Analysis of Suicidal Thoughts among Adolescents // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). - 2021. - P. 75-76.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(6)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.